

“O‘zbekko‘mir” aksiyadorlik jamiyati
Kuzatuv kengashi majlisining
5/2025 - sonli bayonnomasi

Majlis o‘tkazilgan sana:

“28” Noyabr 2025 yil

Majlis o‘tkazilgan joy:

Toshkent shahar- 11, Markaz-14, 27 uy.

Majlis o‘tkazilgan vaqt:

soat 15-00

Majlisni o‘tkazish shakli:

So‘rovnoma yo‘li bilan

Kuzatuv kengashi majlisi O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 78-moddasiga muvofiq, Kuzatuv kengash a‘zolari tashabbusi bilan chaqirildi.

Kuzatuv kengashi a‘zolari majlis bayonnomasini imzolash orqali kun tartibidagi masalalar bo‘yicha ovoz berishadi.

Majlisda ishtirok etishi lozim bo‘lgan kuzatuv kengashi a‘zolari: Islamov Bobir Farxadovich, Samandarov Tal‘at Yo‘ldoshevich, Xalimov Adxambek Jamoliddin o‘g‘li, Pulatov Nodirbek G‘ulomovich, Bart Lucarelli (mustaqil a‘zo), Nazarov Nodir Qaxarovich, Upushev Yerlan Yelemesovich, Ayxodjaev Rustam Irkinovich, Raxmatov Alisher Xamzaevich.

Mazkur majlisda 9 ta Kuzatuv kengashi a‘zolaridan 7 tasi so‘rovnoma orqali qatnashdi.

O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 78-moddasida belgilangan Kuzatuv kengashi majlisini o‘tkazish kvorumi (77,7%) mavjud.

KUN TARTIBI:

1. “O‘zbekko‘mir” AJning 2026-yilga mo‘ljallangan Biznes-rejasini tasdiqlash masalasini ko‘rib chiqish.
2. “O‘zbekko‘mir” AJda yuridik bo‘limini markazlashtirish masalasini ko‘rib chiqish.
3. “O‘zbekko‘mir” AJ ichki audit xizmatining 2026-yilga mo‘ljallangan ish rejasi va harajatlar smetasini tasdiqlash masalasini ko‘rib chiqish.
4. “O‘zbekko‘mir” AJ ko‘mir ustki qatlamni ochish va qazib olish jarayonini jadallashtirish, shuningdek unumdurlikni oshirish uchun tog‘-transporti va texnikalarini xarid qilish masalasi.
5. Jamiyat Ijroiya organining 2026-yilga mo‘ljallangan eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlarini ko‘rib chiqish.
6. Jamiyat tashkiliy tuzilmasini ko‘rib chiqish.
7. “O‘zbekko‘mir” AJ aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini chaqirish.

Kun tartibidagi birinchi masala bo'yicha

“O‘zbekko‘mir” AJning 2026-yilga mo‘ljallangan biznes-rejani ko‘rib chiqish uchun taqdim etildi (*ilova qilinadi*).

“O‘zbekko‘mir” AJning 2026-yilga mo‘ljallangan biznes-rejada korxona to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar, bozor va marketing rejasi, ko‘rsatkichlar, ishlab chiqarish rejasi, moliyaviy rejalar, korxona samaradorligi muhim ko‘rsatkichlari bo‘yicha rejalar ishlab chiqilgan.

Shulardan:

Ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish rejasi:

- kon ustini ochishda ishlab chiqarish quvvatdan foydalanish 2025-yil rejada 48,8 mln.m³, kutilishi 36,7 mln. kub metr. 2026-yil rejada 36,4 mln. kub metr o‘shish sur‘ati 99,1 %;

- ko‘mir ishlab chiqarish quvvatdan foydalanish 2025-yil rejada 6 800 ming tn., kutilishi 7 000 ming tn. 2026-yil rejada 5 700 ming tn. o‘shish sur‘ati 81,4 %;

- kaolin ishlab chiqarish quvvatdan foydalanish 2025-yil rejada 850,0 ming.tn., kutilishi 507,2 ming tn. 2026-yil rejada 850,0 ming tn. o‘shish sur‘ati 167,6 %;

Ishlab chiqarish rejasi:

- Ko‘mir ishlab chiqarish rejasi 2025-yil rejada 1 792,9 mlrd. so‘m., kutilishi 1 809,9 mlrd.so‘m bo‘lib 2026-yil rejada 1 620,7 mlrd.so‘m rejalashtirilgan;

- Kaolin ishlab chiqarish rejasi 2025-yil rejada 42,4 mlrd. so‘m., kutilishi 25,3 mlrd. so‘m bo‘lib 2026-yil rejada 40,5 mlrd. so‘m rejalashtirilgan;

- Boshqalarda ishlab chiqarish rejasi 2025-yil rejada 7,3 mlrd. so‘m., kutilishi, 3 mlrd. so‘m bo‘lib 2026-yil rejada 7,3 mlrd. so‘m rejalashtirilgan;

Maxsulot (xizmat)lar sotish rejasi (*amaldagi narxlarda*):

- Jami sof tushum (*egri soliqlarsiz*) 2025-yil rejada 1 831,7 mlrd. so‘m, kutilishi esa 1 571,2 mlrd.so‘mni tashkil etadi. 2026-yilga 1 781,0 mlrd. so‘m (*2 228,2 mlrd. so‘m 1 apreldan narxlar erkinlashtirilganda*) rejalashtirilgan.

Shulardan:

- Ko‘mir 2025-yil rejada 1 782,1 mlrd. so‘m, kutilishi esa 1 546,2 mlrd. so‘mni tashkil etadi. 2026-yilga 1 733,3 mlrd. so‘m (*2 180,7 mlrd. so‘m*) rejalashtirilgan.

- Kaolin 2025-yil rejada 42,4 mlrd. so‘m, kutilishi esa 19,0 mlrd. so‘mni tashkil etadi. 2026-yilga 40,5 mlrd. so‘m rejalashtirilgan.

- Boshqalar 2025-yil rejada 7,3 mlrd. so‘m, kutilishi esa 6,0 mlrd. so‘mni tashkil etadi. 2026-yilga 7,3 mlrd. so‘m rejalashtirilgan.

Moliyaviy ko‘rsatkichlar va moliyaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar rejasi byudjeti (*amaldagi narxlarda*):

- Jami daromadlar 2025-yilda kutillishi 1 571,2 mlrd.so‘m, 2026-yil rejada 1 781 mlrd. so‘m o‘zgarish 115,7 foiz;

- Maxsulotni sotish tannarxi 2025-yilda kutillishi 1 168,1 mlrd.so‘m 2026-yil rejada 1 706 mlrd. so‘m. o‘zgarish 146 foiz;

- Davr xarajatlari 2025-yilda kutillishi 286,5 mlrd.so‘m 2026-yil rejada 273 mlrd. so‘m. o‘zgarish 95,3 foiz;

- Moliyaviy faoliyat bo‘yicha harajatlar 2025-yilda kutillishi 101,5 mlrd.so‘m 2026-yil rejada 101,6 mlrd.so‘m. o‘zgarish 100,1 foiz;

- Foyda solig‘i to‘langunga qadar foyda (zarar) 2025-yilda kutillishi 15,1 mlrd.so‘m 2026-yil rejada zarar -319,0 mlrd.so‘m.

- Sof foyda (zarar) 2025-yilda kutillishi 9,6 mlrd.so‘m 2026-yil rejada zarar -271,2 mlrd. so‘mni tashkil etishi kutilmoqda.

Moliyaviy ko‘rsatkichlar va moliyaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar rejasi byudjeti (1 apreldan erkinlashtirilgan narxlarda):

- Jami daromadlar 2025-yilda kutillishi 1 571,2 mlrd.so‘m, 2026-yil rejada 2 228,5 mlrd.so‘m. o‘zgarish 141,8 foiz;

- Maxsulotni sotish tannarxi 2025-yilda kutillishi 1 168,1 mlrd.so‘m 2026-yil rejada 1 706 mlrd. so‘m. o‘zgarish 146 foiz;

- Davr xarajatlari 2025-yilda kutillishi 286,5 mlrd.so‘m 2026-yil rejada 273 mlrd. so‘m. o‘zgarish 95,3 foiz;

- Moliyaviy faoliyat bo‘yicha harajatlar 2025-yilda kutillishi 101,5 mlrd.so‘m 2026-yil rejada 101,6 mlrd.so‘m. o‘zgarish 100,1 foiz;

- Foyda solig‘i to‘langunga qadar foyda (zarar) 2025-yilda kutillishi 15,1 mlrd.so‘m 2026-yil rejada 147,9 mlrd.so‘m.

- Foyda solig‘i 2025-yilda kutillishi 5,5 mlrd. so‘m 2026-yil rejada 22,2 mlrd.so‘m;

- Sof foyda (zarar) 2025-yilda kutillishi 9,6 mlrd.so‘m 2026-yil rejada 125,7 mlrd. so‘mni tashkil etishi kutilmoqda.

Pul oqimlari prognozi:

- Kon ustki qatlamini ochish 2025-yilda kutilishi 36 700 ming kub.metr. 2026-yil reja amaldagi narxda 36 367 ming kub.metr;

- Ko‘mir qazib olish 2025-yilda kutilishi 7 000 ming tonn. 2026-yil reja amaldagi narxda 5 700 ming tonn;

- Harajatlar 2025-yilda kutilishi 1 556,1 mlrd. so‘m 2026-yil reja amaldagi narxda 2 080,5 mlrd. so‘m,;

- Sof foyda 2025-yilda kutilishi 9,6 mlrd. so‘m 2026-yil reja amaldagi narxda zarar -319,0 mlrd. so‘mni, 1 apreldan erkinlashtirilgan narxlarda esa 125,7 mlrd. so‘m tashkil etishi rejalashtirilgan.

Mahalliyashtirish:

- Kon transporti va kon uskunalari uchun ehtiyot qismlar bo‘yicha 2025-yilda kutilishi 5 826,7 mln. so‘m. 2026-yil rejada 6 006,0 mln. so‘mni tashkil etishi

rejalashtirilgan.

Kuzatuv kengashi tomonidan mazkur masala muxokama qilinib ovozga qo'yildi.

Ovoz berish natijalari:

Tarafdor - 7 Qarshi - 0 Betaraf - 0

Kun tartibidagi birinchi masala bo'yicha qabul qilingan qarorlar:

1. Jamiyatning 2026 yilga mo'ljallangan biznes-rejasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Kun tartibidagi ikkinchi masala bo'yicha:

2025-yil 30-iyun kuni bo'lib o'tgan "O'zbekko'mir" AJ aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishi bayoniga asosan Jamiyatning tashkiliy tuzilmasi tasdiqlangan bo'lib, unga ko'ra boshqaruv apparatida yuridik bo'lim 3 ta shtat birligi bilan tasdiqlangan.

Hozirgi kunda Jamiyat filiallarida ham yuriskonsult lavozimlari mavjud. Biroq, filiallarda yuridik masalalar hajmi kamligi, ish yuki yetarli darajada emasligi hamda asosiy sud ishlari markaziy apparat yuridik bo'limi tomonidan ko'rib chiqilishi va hal qilinishini inobatga olgan holda filiallardagi yuriskonsult lavozimlarini qisqartirish, ularning lavozim yo'riqnomasida nazarda tutilgan majburiyatlarni markaziy apparat yuridik bo'limi ixtiyoriga o'tkazish va jamiyatda yuridik funksiyani markazlashtirish lozim.

Yuqoridagi masala Kuzatuv kengash tomonidan muhokama qilindi va "O'zbekko'mir" AJ filiallaridagi yuriskonsult lavozimlarini belgilangan tartibda qisqartirishga rozilik berish taklif qilindi.

Muhokamadan so'ng ushbu masala tasdiqlash uchun ovozga qo'yildi va bir ovozdan maqullandi.

Ovoz berish natijalari:

Tarafdor - 7 Qarshi - 0 Betaraf - 0

Kun tartibidagi ikkinchi masala bo'yicha qabul qilingan qaror:

1. "O'zbekko'mir" AJ filiallaridagi yuriskonsult lavozimlari belgilangan tartibda qisqartirilsin va jamiyat yuridik bo'limi faoliyati markazlashtirilsin.

2. Jamiyatda yirik yuridik masalalarni xal qilish lozim bo'lganda autsorsing yoki autstaffing orqali tajribali mutaxassislarni jalb qilish ishlari amalga oshirilsin.

Kun tartibidagi uchinchi masala bo'yicha:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 16-oktabrdagi 215-son Qarori hamda jamiyatning ichki audit xizmati to'g'risidagi nizomiga muvofiq jamiyat ichki audit xizmati xodimlarining 2026-yilga mo'ljallangan yillik ish rejalari

va harajatlar smetasini ko'rib chiqib tasdiqlash lozim (*yillik ish reja va tegishli xujjatlar ilova qilinadi*).

Muhokamadan so'ng ushbu masala tasdiqlash uchun ovozga qo'yildi va bir ovozdan maqullandi.

Ovoz berish natijalari:

Tarafdor - 7 Qarshi - 0 Betaraf - 0

Kun tartibidagi uchinchi masala bo'yicha qabul qilingan qaror:

1. "O'zbekko'mir" AJ ichki audit xizmatining 2026 yilga mo'ljallangan ish rejasi va harajatlar smetasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Kun tartibidagi to'rtinchi masala bo'yicha:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining joriy yil 4-oktabrdagi 624-F sonli Farmoyishi asosida ko'mir qazib chiqarishda kechiktirib bo'lmaydigan xarajatlar uchun "O'zbekko'mir" AJga ajratilgan 50 mlrd.so'mi miqdordagi ssuda ajratilishi belgilangan.

Hususan, Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining joriy yil 30-oktabrdagi 01-1016-sonli O'zbekiston Respublikasi Bosh Vaziriga yuborgan axborotnomasi va unga chiqarilgan ustxatga muvofiq, ajratilgan ssudani maqsadli ravishda ko'mir qazib chiqarish uchun zarur texnika, jumladan tog'-transport texnikasi va vositalarini mazkur xarid qilish choralarini ko'rish zarur.

Muhokamadan so'ng ushbu masala tasdiqlash uchun ovozga qo'yildi va bir ovozdan maqullandi.

Ovoz berish natijalari:

Tarafdor - 7 Qarshi - 0 Betaraf - 0

Kun tartibidagi to'rtinchi masala bo'yicha qabul qilingan qaror:

1. "O'zbekko'mir" AJ ko'mir ustki qatlamni ochish va qazib olish jarayonini jadallashtirish, shuningdek unumdorlikni oshirish uchun 3-ilovada keltirilgan tog'-transporti va texnikalarini xarid qilishga rozilik berilsin.

Kun tartibidagi beshinchi masala bo'yicha:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-noyabrdagi "Davlat korxonalarida tannarxni kamaytirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi F-59-sonli Farmoyishining 10-band (a)-kichik bandi ijrosi hamda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 22-noyabrdagi 07/25760-son topshirig'i ijrosini ta'minlash maqsadida 2026-yil uchun "O'zbekko'mir" AJ rahbarlari faoliyatining eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) ishlab chiqildi.

Yuqoridagi ishlab chiqilgan samaradorlik ko'rsatkichlarini jamiyat kuzatuv kengashi yig'ilishida ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilish kun tartibiga kiritish belgilangan.

"O'zbekko'mir" AJ rahbarlari faoliyatining eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari Kuzatuv kengash a'zolariga ko'rib chiqish uchun taqdim etiladi (KPI ilova qilinadi).

Ovoz berish natijalari:

Tarafdor - 7 Qarshi - 0 Betaraf - 0

Kun tartibidagi beshinchi masala bo'yicha qabul qilingan qaror:

1. "O'zbekko'mir" AJ rahbarlarining 2026-yilga mo'ljallangan eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari maqullansin.

2. Jamiyat rahbarlarining 2026-yilga mo'ljallangan eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari jamiyat aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritilsin.

Kun tartibidagi oltinchi masala bo'yicha:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-noyabrdagi F-59-son farmoyishi 2-bandiga muvofiq davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo'lgan korxonalarda mahsulot tannarxini kamaytirish va faoliyati samaradorligini oshirish, tashkiliy tuzilma va kadrlar sonini maqbullashtirish korxonalarining tashkiliy tuzilmasini qayta ko'rib chiqish, takrorlanuvchi, samarasiz lavozimlarni qisqartirish, mehnat unumdorligini oshirish va bir qator boshqa topshiriqlar belgilangan.

Yuqoridagi Farmoish ijrosini ta'minlash maqsadida jamiyat boshqaruv xodimlari sonini 10 foizgacha qisqartirish yuzasidan jamiyatning yangilangan tashkiliy tuzilmasi ishlab chiqildi va kuzatuv kengash a'zolariga ko'rib chiqish uchun kiritildi (*tashkiliy tuzilma ilova qilinadi*).

Muhokamadan so'ng ushbu ovozga qo'yildi va bir ovozdan maqullandi.

Ovoz berish natijalari:

Tarafdor - 7 Qarshi - 0 Betaraf - 0

Kun tartibidagi oltinchi masala bo'yicha qabul qilingan qaror:

1. "O'zbekko'mir" AJning yangilangan tashkiliy tuzilmasi maqullansin.

2. Jamiyatning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash masalasi jamiyat aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritilsin.

Kun tartibidagi yettinchi masala bo'yicha:

"O'zbekko'mir" AJ Kuzatuv kengash a'zolari Jamiyat aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishni taklif qildi.

Kuzatuv kengashi Jamiyat aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi chaqirish, yig'ilish o'tkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilash, aksiyadorlar reestrlarini shakllantirish sanalarini va kun tartibini belgilash hamda yig'ilish o'tkazilishi bilan bog'liq boshqa tashkiliy masalalar hamda, yig'ilish o'tkazilishi haqida aksiyadorlarga xabar berish uchun aksiyadorlar reestrini tuzish sanasini belgilash lozimligi haqida ma'lum qilindi.

"O'zbekko'mir" AJ aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini 2025- yilning "26" 12 kuni soat 15-00 da Toshkent viloyati, Angren shahar, Istiqlol ko'chasi, 1-uyda joylashgan Jamiyat majlislar zalida o'tkazish taklifi berildi.

Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan qo'yidagilar taklif qilindi.

Aksiyadorlarni ro'yxatga olish vaqti – 14:00 dan 15:00 ga qadar.

Jamiyat aksiyadorlarining reestrlarini shakllantirish sanasi:

- aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi o'tkazilishi haqida xabar qilish uchun Jamiyat aksiyadorlarining reestrini shakllantirish sanasi – "28" 11 2025-yil;

- aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi o'tkazish uchun Jamiyat aksiyadorlarining reestrini shakllantirish sanasi – "22" 12 2025 yil.

Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi **kun tartibi:**

1. *Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash.*

2. *Sanoq komissiyasi a'zolari soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlash.*

3. *"O'zbekko'mir" AJning 2025-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash.*

4. *Jamiyat Ijroiya organ a'zolariga to'lanadigan oylik ish haqining eng yuqori miqdorni belgilash.*

5. *Jamiyatning homiylik (xayriya), beg'araz yordam ko'rsatishga sarflanadigan harajatlarini belgilash.*

6. *Jamiyat Ijroiya organining 2026-yilga mo'ljallangan eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlarini tasdiqlash.*

7. *Jamiyat tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash.*

8. *Jamiyat Kuzatuv kengash a'zolarini saylash.*

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazilishi haqida aksiyadorlarni xabardor qilish tartibini quydagicha belgilash:

- aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazilishi haqidagi xabar jamiyatning rasmiy veb-saytiga (www.uzbekcoal.uz.) joylashtirish;

- aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazilishi haqidagi xabar korporativ axborot yagona portaliga veb-saytiga (www.openinfo.uz) joylashtirish;

- aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi o'tkazilishi haqida xabar qilish uchun shakllantirilgan reestrga asosan, elektron pochta bor aksiyadorlarga aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazilishi haqidagi xabarni jo'natish;

- aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda aksiyadorlarga taqdim etilishi lozim bo'lgan axborotlarni taqdim qilish;

- aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishda ovoz berish byulletenining shakli va matni ilovaga muvofiq tasdiqlash taklif qilindi.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishiga 3 kishidan iborat sanoq komissiyasini tasdiqlash taklif etiladi:

O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunining 73-moddasiga muvofiq ovozlarni sanab chiqish, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etishi uchun aksiyadorlarni ro'yxatga olish, shuningdek ovoz berish byulletenlarini tarqatish uchun Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan sanoq komissiyasi tuzilib, uning a'zolari soni va shaxsiy tarkibi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

Muhokamadan so'ng masala ovozga qo'yildi.

Ovoz berish natijalari:

Tarafdor - 7 Qarshi - 0 Betaraf - 0

Kun tartibidagi yettinchi masala bo'yicha qabul qilingan qaror:

1. "O'zbekko'mir" AJ aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi 2025-yilning "26" 12 kuni soat 15:00 da Toshkent viloyati, Angren shahri, Istiqlol ko'chasi, 1-uyda manzili bo'yicha Jamiyat majlis zaliga chaqirilsin.

Aksiyadorlarni ro'yxatga olish vaqti – 14:00 dan 15:00 ga qadar belgilansin.

2. Jamiyat aksiyadorlarining reestrlari shakllantirish sanasi quydagicha belgilansin:

- aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi o'tkazilishi haqida xabar qilish uchun Jamiyat aksiyadorlarining reestrini shakllantirish sanasi – "28" 11 2025 yil;

- aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi o'tkazish uchun Jamiyat aksiyadorlarining reestrini shakllantirish sanasi – "22" 12 2025 yil.

3. Jamiyat aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi **kun tartibi** qo'yidagicha tasdiqlansin:

1. *Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash.*

2. *Sanoq komissiyasi a'zolari soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlash.*

3. "O'zbekko'mir" AJning 2025-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash.

4. Jamiyat Ijroiya organ a'zolariga to'lanadigan oylik ish haqining eng yuqori miqdorni belgilash.

5. Jamiyatning homiylik (xayriya), beg'araz yordam ko'rsatishga sarflanadigan harajatlarni belgilash.

6. Jamiyat Ijroiya organining 2026-yilga mo'ljallangan eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlarini tasdiqlash.

7. Jamiyat tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash.

8. Jamiyat Kuzatuv kengash a'zolarini saylash.

4. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazilishi haqida aksiyadorlarni xabar qilish tartibi qo'yidagicha belgilansin:

- aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazilishi haqidagi xabar Jamiyatning rasmiy veb-saytiga (www.uzbekcoal.uz.) joylashtirilsin;

- aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazilishi haqidagi xabar korporativ axborot yagona portaliga veb-saytiga (www.openinfo.uz) joylashtirilsin;

- aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi o'tkazilishi haqida xabar qilish uchun shakllantirilgan reestrda asosan, elektron pochta boshqaruvi aksiyadorlarga aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazilishi haqidagi xabar jo'natilsin;

- aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda aksiyadorlarga taqdim etilishi lozim bo'lgan axborotlar (materiallar) bilan tanishtirilsin.

5. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishda ovoz berish byulletenining shakli va matni ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Ovozlarni sanab chiqish, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etishi uchun aksiyadorlarni ro'yxatga olish, shuningdek ovoz berish byulletenlarini tarqatish uchun 3 kishidan iborat sanoq komissiyasi tuzilsin.

7. Jamiyat ijroiya organiga – Qimmatli qog'ozlar Markaziy depozitariysi Davlat korxonasiga Jamiyat aksiyadorlari reestrini shakllantirish to'g'risida topshiriqnomalar yotqizilishi va reestrlarni olinishini, aksiyadorlarga yig'ilish o'tkazilishi to'g'risida xabar berish va yig'ilish o'tkazilishi bilan bog'liq bo'lgan tadbirlarni ta'minlash topshirilsin.

Kuzatuv kengashi raisi:

Islamov B.F.

B. Islam

Kuzatuv kengashi a'zolari:

Samandarov T.Y.

T.Y. Samandarov

Xalimov A.J.

A.J. Xalimov

Pulatov N.G'.

N.G. Pulatov

Nazarov N.K.

N.K. Nazarov

Ayxodjaev R.I.

R.I. Ayxodjaev

Raxmatov A.X.

A.X. Raxmatov